

Abdullayev Sayfullo
*Buxoro davlat pedagogika instituti,
pedagogika fanlari doktori*

Zikrillayeva Visola
*Buxoro davlat pedagogika instituti
magistranti*

TALABALARDA RANGTASVIR BO'YICHA BADIY-KASBIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH: EKSPERIMENTAL TADQIQOT

Annotatsiya. Maqolada rangtasvir ta'limi jarayonida talabalar badiiy-kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish metodikasini takomillashtirish masalasi o'rganiladi. Tadqiqot doirasida eksperimental metodlar asosida yangi o'quv-uslubiy yondashuvlar ishlab chiqildi va ularning samaradorligi amaliy tajribalar orqali sinovdan o'tkazildi. Talabalarda rang, kompozitsiya, badiiy tafakkur va ijodiy ifoda vositalaridan samarali foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. Maqolada tajriba natijalari, statistik tahlillar va amaliy tavsiyalar keltirilgan. Natijalar ta'lim sifatini oshirish, kasbiy kompetensiyalarni mustahkamlash hamda talabalarni mustaqil va ijodiy faoliyatga tayyorlashda yangi imkoniyatlar ochishini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: rangtasvir ta'limi, badiiy-kasbiy kompetensiya, metodika, eksperimental tadqiqot, ijodiy rivojlanish, kompozitsiya asoslari, rang bilimlari, badiiy tafakkur, tasviriy san'at, pedagogik texnologiyalar, innovatsion metodlar, o'quv jarayoni samaradorligi, talaba faoliyati.

IMPROVING THE METHODOLOGY FOR DEVELOPING ARTISTIC AND PROFESSIONAL COMPETENCIES IN STUDENTS IN THE FIELD OF PAINTING: EXPERIMENTAL RESEARCH

Annotation. The article explores the issue of improving methods for developing students' artistic and professional competencies in the process of painting education. Within the research, new educational-methodological approaches were developed based on experimental methods and tested through practical experiments. Particular attention was given to enhancing students' abilities to effectively use color, composition, artistic thinking, and creative expression tools. The article presents the results of the experiments, statistical analyses, and practical recommendations. The findings demonstrate that the proposed methods open new opportunities for improving the quality of education, strengthening professional competencies, and preparing students for independent and creative activities.

Keywords: painting education, artistic-professional competence, methodology, experimental research, creative development, basics of composition, color theory, artistic thinking, visual arts, pedagogical technologies, innovative methods, educational process efficiency, student activity.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ФОРМИРОВАНИЯ ХУДОЖЕСТВЕННО- ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ В ОБЛАСТИ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА: ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ

Аннотация. В статье рассматривается вопрос совершенствования методики формирования художественно-профессиональных компетенций студентов в процессе обучения живописи. В рамках исследования были разработаны новые учебно-методические подходы на основе экспериментальных методов и проверены на практике. Особое внимание уделено развитию у студентов навыков эффективного использования цвета, композиции, художественного мышления и средств творческого самовыражения. В статье приведены результаты эксперимента, статистический анализ и практические рекомендации. Полученные данные свидетельствуют о том, что предложенные методики открывают новые возможности для повышения качества образования, укрепления профессиональных компетенций и подготовки студентов к самостоятельной и творческой деятельности.

Ключевые слова: обучение живописи, художественно-профессиональная компетенция, методика, экспериментальное исследование, творческое развитие, основы композиции, теория цвета, художественное мышление, изобразительное искусство, педагогические технологии, инновационные методы, эффективность учебного процесса, студенческая активность.

Kirish. Mamlakatimizda ta'lim tizimini isloh qilish, kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirish va ijodiy salohiyatga ega mutaxassislar tayyorlash davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Xususan, tasviriy san'at va rangtasvir yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarni bozor iqtisodiyoti, texnologiyalar va zamonaviy san'at talablari asosida kasbga yo'naltirish, ularda badiiy-estetik dunyoqarashni shakllantirish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Badiiy-kasbiy kompetensiyalar deganda, talabalarning nazariy bilimlar bilan bir qatorda, rang, shakl, hajm, kompozitsiya kabi tasviriy san'at asoslarini ongli va mustaqil ijodiy faoliyatda qo'llay olish qobiliyati tushuniladi.

"Kompetentlik" (ingl. "competence" – "qobiliyat") – faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish hisoblanadi. "Kompetentlik" pedagogik kategoriya sifatida ta'lim sohasiga psixologik ilmiy izlanishlar natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan (nostandart) holatlarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik"ni anglatadi. Shundan kelib chiqqan holda kasbiy kompetentlik kategoriyasiga quyidagicha izoh keltirilgan.

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishini ko'zda tutadi

Rangtasvir bo'yicha ta'lim jarayonida talabalar badiiy-kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish hozirgi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bu borada o'zbek va xorijiy olimlar tomonidan yozilgan ko'plab ilmiy va uslubiy adabiyotlar mavjud bo'lib, ular o'quv jarayonini yanada samarali tashkil etish uchun muhim nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Masalan, o'zbek tadqiqotchilaridan S. Qosimov, M. Shamsiyev, T. Muxiddinov, M. Islomov va A. Yusupovlarning ilmiy ishlari va darsliklarida tasviriy san'at va rangtasvir fanini o'qitish, talabalarda rang va kompozitsiya haqidagi bilimlarni chuqurlashtirish, estetik dunyoqarashni shakllantirish haqida ko'plab foydali g'oyalar ilgari surilgan. Bu mualliflar ijodiy yondashuvni kuchaytirish, o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, zamonaviy o'qitish metodlaridan foydalanish zarurligini ta'kidlaydilar.

Xorijiy manbalarda esa, masalan, H. Gardnerning "Ko'p intellekt nazariyasi", R. Arnheimning "San'at va vizual idrok" kitobi, shuningdek, Eisnerning estetik tarbiya haqidagi ishlari orqali rangtasvirning psixologik va estetik jihatlarini chuqur tahlil qilingan. Ushbu adabiyotlar o'quvchilar rang va shaklni qanday qabul qilishi, ijodiy tafakkur qanday rivojlanishi haqida muhim ilmiy asoslar beradi.

Bir qator tadqiqotlarda bevosita pedagogga xos kasbiy kompetentlik va uning o'ziga xos jihatlarini o'rganilgan. Ana shunday tadqiqotlar sirasiga A.K.Markova va B.Nazarovalar tomonidan olib borilgan izlanishlarni kiritish mumkin.

A.K.Markova tomonidan olib borilgan tadqiqotlarida pedagogning kasbiy kompetentligi quyidagi tarkibiy asoslardan iborat ekanligi bayon qilingan: Maxsus yoki kasbiy kompetentlik (kasbiy faoliyatni yuqori darajada tashkil etish); Ijtimoiy kompetentlik (qo'shimcha faoliyatni hamkorlikda tashkil etish); Shaxsiy kompetentlik (o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini namoyon etish); Individual kompetentlik (o'z-o'zini boshqarish, kasbiy rivojlanish va yangiliklar yaratish).

Ta'lim amaliyotida kompetentlik yondoshuvini amalga oshirish ushbu jarayonning barcha jihatlarini chuqur va har tomonlama ilmiy o'rganishni talab etadi. Shu bilan birga, ta'kidlash kerakki, kompetentlikni pedagogik fenomen sifatida talqin qilish qiyin, chunki, kompetentlik kategoriyasi pedagogikaga boshqa fanlardan kiritilgan bo'lib, u fanlarda yetarli darajada chuqur anglab yetilgan va o'zining mustahkam o'rniga ega. Yangi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning natijasi sifatida pedagogika fanining tushunchalari tarkibiga nisbatan yaqinda kirib kelgan va hozircha pedagogik, xususan didaktik tushunchalar tizimiga to'laqonli tarzda tegishli.

Y.P. Tonkonogaya va V.Y. Krichevskiyilar kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatlarni ko'rib chiqar ekanlar, kompetentlikni xushaxloqlik, pedagogik tashkilotchilik, boshqaruvchanlik, kommunikativlik va boshqa sifatlardan bir qatorga qo'ygan.

S.E. Shishov tomonidan kompetentlikning quyidagi ta'riflari keltirilgan: o'qish-o'rganish tufayli egallangan bilimlar, tajriba, qadriyatlar va moyilliklarga asoslangan umumiy layoqatlilik; bilim va vaziyatlar o'rtasidagi aloqani o'rnata bilish qobiliyati, muammoga mos keladigan hal etish yo'lini topish (kompetentlik deb aytish uchun biror bir vaziyatda namoyon etiladigan taqdirdagina joiz bo'ladi, namoyon etilmagan kompetentlik – kompetentlik emas, yashirin imkoniyatlar bo'lib qolsa ham katta gap).

L.M.Dolgova, P.V. Simonov va boshqalarning fikricha, kompetentlik - olingan bilimlarga asoslangan holda harakat qila olishlik demakdir. Namunalarga o'xshash harakatlarni ko'zda tutadigan "bilim, ko'nikma va malakalardan" farqli o'laroq, kompetentlik universal bilimlarga asoslangan holda mustaqil faoliyat tajribasini nazarda tutadi.

"Kompetentlik – ijtimoiy amaliyot ko'rinishidagi bilim va ko'nikmalarning mavjudligi bo'lib, u ta'lim jarayoni natijalariga ijtimoiy-madaniy talablar va jamiyat tomonidan talablar qo'yiladigan hollarda namoyon bo'ladi", - deb ta'kidlaydi L.M. Dolgova. V.V. Bashevning ta'kidlashicha, kompetentliklar – insonning individual qobiliyati bo'lib, ular shart-sharoitlar o'zgargan paytda ushbu qobiliyatning boshqa shart-sharoitlarga ko'cha olishida namoyon bo'ladi.

N.G. Vitkovskayaning ta'riflashicha, kompetentlik - qo'yilgan muammolarni hal etishga qaratilgan insonning ichki (bilim, ko'nikma va malakalari, ma'naviy sifatlari, psixologik xususiyatlari) va tashqi (moddiy-texnik, ijtimoiy) imkoniyatlarini safarbar qila olishga qodirligidir.

Psixologik nuqtai-nazardan, A.K. Markovanning fikricha, kompetentlik – muayyan insonning xarakteristikasi, ya'ni kasbiy talablarga munosibligi darajasi bo'yicha insonning individual xarakteristikasi demakdir.

N.A. Muslimov o'zining tadqiqot ishlarida o'qituvchining kasbiy kompetentligini shakllanganlik asosini oltita sifatlar, ya'ni motivatsion xislatlar (insonning butun hayoti davomida shakllanib, rivojlanib boruvchi tanlagan kasbiga bo'lgan ehtiyojlari, motivlari va maqsadlarni qamrab oladi), intellektual salohiyat (barcha rasmiy hujjatlar asosida o'qituvchi axborot va ma'lumotlarni uzatishga, bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga intiladi), irodaviy sifatlar (maqsadga intiluvchanlik, ichki va tashqi to'siqlarni, jismoniy va aqliy zo'rqiqlashlarni yenga olishlik, o'zini tuta bilishlik va tashabbuskorlik xislatlari), amaliy ko'nikmalar (psixologik, pedagogik, metodik va texnik-texnologik qobiliyatlar, amallar, individning faoliyat va muloqotning turli sohalaridagi ko'nikmalari), hissiy sifatlar (o'z hissiyotlarini boshqarishning zaruriy malakalarini shakllantirishi, o'zining aniq hislari (qahr, g'azab, bezovtalik, arazlash, hasad, hamdardlik, uyalish, mag'rurlik, qo'rqiqlash, ko'ngilchanlik, muhabbat va boshqalar)ni boshqarishi hamda o'z hissiy holatlarini va ularni keltirib chiqaruvchi sabablarni tushunishi) hamda o'z-o'zini boshqara olish (maqsadlarni va ularga erishish vositalarini tanlashdagi erkinlik, vijdonlilik, o'z faoliyatiga tanqidiy yondoshuv, harakatlarning keng qamrovliligi va anglanganligi, o'z xulqini boshqalariniki bilan qiyoslab borishi, kelajakka ishonchi, o'z jismoniy va psixologik holatini talab darajasida tutib turishi va boshqara olishi) sifatlari tashkil etishini ta'kidlab o'tadi.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, talabalarni zamonaviy san'at talablari asosida o'qitish, ularni ijodkorlikka yo'naltirish va amaliy bilimlarni chuqurlashtirish uchun metodik yondashuvlarni takomillashtirish zarur. Shuningdek, talabalarning faolligini oshiradigan, ularda ijodiy tafakkur va badiiy didni rivojlantiradigan usullarni qo'llash bugungi ta'limda eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Tasviriy san'atda badiiy-kasbiy kompetensiyalar — bu o'quvchilar va talabalarda tasviriy san'atning estetik va kasbiy jihatlarini mukammal tushunish, ijodiy yondashuvlar asosida ishlash va o'z faoliyatlarini muvaffaqiyatli olib borish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va qobiliyatlar to'plamidir. Tasviriy san'atda badiiy-kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish o'quvchilarni nafaqat badiiy ishlanmalar yaratishga, balki tasviriy san'atning amaliy va kasbiy sohalarida ishlashga tayyorlashga qaratilgan.

Badiiy-kasbiy kompetensiyalar quyidagi asosiy elementlardan iborat:

Tasviriy san'atning turli janrlari, uslublari, tarixiy rivojlanishi, kompozitsiya va rangshunoslik asoslari haqida chuqur bilimlarga ega bo'lish. Badiiy bilimlar talabalarga rang, shakl, tuzilma, kompozitsiya va boshqa elementlarni to'g'ri qo'llashga imkon beradi.

Badiiy-kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda ijodiy fikrlash muhim ahamiyatga ega. O'quvchilar o'z fikrlarini erkin va original tarzda ifoda etish, yangi g'oyalar yaratish, an'anaviy uslublardan tashqariga chiqish qobiliyatiga ega bo'lishlari kerak.

Tasviriy san'atda muvaffaqiyatli ishlash uchun turli texnikalar, materiallar va uslublarni bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish zarur. Bu, o'z navbatida, o'quvchilarga badiiy asarlarni yaratishda, uning turli jihatlarini aniqlashda, ranglarni, shakllarni va kompozitsiyani to'g'ri ishlatishda yordam beradi.

Badiiy-kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda kreativ yondashuvlar muhim rol o'ynaydi. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga va yangi yechimlar topishga undash, badiiy asarlarni yaratishda yangicha va inovatsion usullardan foydalanish zarur.

Badiiy-kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda o'quvchilarning tasviriy san'atning amaliy sohasi - masalan, dizayn, reklamalar, interyer san'ati, vizual kommunikatsiyalar va boshqalar bo'yicha kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish ham juda muhimdir. Bu sohalarida ishlash uchun talaba nafaqat badiiy bilimlar, balki texnik va kasbiy bilimlarga ham ega bo'lishi kerak.

Badiiy-kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda o'quvchilarda estetik idrokni shakllantirish, san'at asarlarini tahlil qilish va ularga tanqidiy qarash qobiliyatini oshirish kerak. Bu, o'z navbatida, ularning badiiy ko'nikmalarini chuqurlashtiradi.

Tasviriy san'atda badiiy-kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda jamoaviy ish va hamkorlik muhim o'rin tutadi. O'quvchilar birgalikda ishlash, o'zaro fikr almashish va badiiy ishlanmalar yaratishda bir-biriga yordam berish orqali ko'proq muvaffaqiyatga erishishadi.

Badiiy-kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish nafaqat o'quvchilarning tasviriy san'atni yaxshi bilishlariga yordam beradi, balki ularning kasbiy sohada muvaffaqiyatli ishlashlariga ham zamin yaratadi. Shuning uchun tasviriy san'at o'qituvchilari ushbu kompetensiyalarni rivojlantirish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodikalardan foydalanishlari zarur.

Eksperimental tadqiqot davomida talabalar tomonidan rangtasvir bo'yicha badiiy-kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan metodikalarni joriy etishning samaradorligi o'rganildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – rangtasvir darslarida badiiy-kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan yangi pedagogik yondashuvlarni amaliyotda sinab ko'rish edi.

Tadqiqotda ishtirok etgan talabalarning natijalarini tahlil qilishda quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

Yangi metodikalarning joriy etilishi talabalar badiiy tasavvurlarini kengaytirishga, ularning ijodiy faoliyatini yanada rivojlantirishga olib keldi. O'quvchilarning rangtasvir darslaridagi ishtiroki yanada faol bo'lib, ularda tasviriy san'atni chuqurroq tushunish va aks ettirish qobiliyati yuzaga keldi.

Talabalar orasida badiiy-kommunikativ kompetensiyaning ortishi kuzatildi. Yangi metodikalarning qo'llanilishi natijasida talabalarning rangtasvirni yaratishdagi mustaqil yondashuvi, ijodkorligi va tanqidiy fikrlash qobiliyati sezilarli darajada oshdi.


Rangtasvir darslarida o'quvchilarga kasbiy ko'nikmalarni o'rgatish jarayoni yanada samarali bo'ldi. Talabalar darsda o'z kasbiy mehnatida foydalanish uchun zarur bo'lgan uslublar va texnikalarni egallashdi, bu esa ularning kelajakdagi professional faoliyatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Eksperiment ishtirokchilarining o'quv yutuqlarini baholash jarayonida, ularning tasviriy san'atga qiziqishi va o'z tasavvurlarini obrazli tarzda ifodalashdagi yutuqlari aniqlandi. Yangi metodikaning joriy etilishi, ayniqsa, rangtanlash, kompozitsiya va materiallar bilan ishlashda talabalar ko'nikmalarining yaxshilanishiga olib keldi.

Tajribaviy metodlar, jumladan, interaktiv o'qitish usullari va guruhli ishlar, talabalar o'rtasida birgalikda ishlash madaniyatini rivojlantirdi. Bu metodlar talabalarning kommunikativ va ijodiy ko'nikmalarini yaxshilashga imkon berdi.


Yuqoridagi natijalar, rangtasvir bo'yicha badiiy-kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda yangi pedagogik yondashuvlarni qo'llashning muvaffaqiyatli ekanligini ko'rsatadi. Tadqiqot davomida olingan ma'lumotlar, shuningdek, kelajakda metodikaning takomillashtirilishi va kengroq joriy etilishi uchun zarur bo'lgan yo'nalishlarni aniqlashga imkon yaratdi.

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va hatti-harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, "kompetensiya" mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi. Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo'ladi:



1-chizma. "Kasbiy kompetentlik"ning namoyon bo'lish shakli

Kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis: o'z bilimlarini izchil boyitib boradi; yangi axborotlarni o'zlashtiradi; davr talablarini chuqur anglaydi; yangi bilimlarni izlab topadi; ularni qayta ishlaydi va o'z amaliy faoliyatida samarali qo'llaydi. Kasbiy kompetentlik negizida quyidagi sifatlar aks etadi:



2-chizma. Kasbiy kompetentlik negizida aks etadigan sifatlar majmui

Ta'lim amaliyotida kompetentlik yondoshuvini amalga oshirish ushbu jarayonning barcha jihatlarini chuqur va har tomonlama ilmiy o'rganishni talab etadi. Shu bilan birga, ta'kidlash kerakki, kompetentlikni pedagogik fenomen sifatida talqin qilish qiyin, chunki, kompetentlik kategoriyasi pedagogikaga boshqa fanlardan kiritilgan bo'lib, u fanlarda yetarli darajada chuqur anglab yetilgan va o'zining mustahkam o'rniga ega. Yangi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning natijasi sifatida pedagogika fanining tushunchalari tarkibiga nisbatan yaqinda kirib kelgan va hozircha pedagogik, xususan didaktik tushunchalar tizimiga to'laqonli tarzda tegishli

Xulosa Mazkur tadqiqotda talabalar rangtasvir bo'yicha badiiy-kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish metodikasini takomillashtirish yo'llari o'rganildi. Tadqiqot natijalari, badiiy ta'limda rangtasvirning o'rni va ahamiyatini tushunishning zarurligi, shuningdek, badiiy-kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda interaktiv va kreativ yondashuvlarning samaradorligini ko'rsatdi.

Eksperimental tadqiqotlar natijasida, rangtasvir bo'yicha zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali talabalar faolligi va ijodiy fikrlash qobiliyati oshgani, shuningdek, o'quvchilarning amaliy ko'nikmalariga bo'lgan qiziqishlari ortgani aniqlangan. Taklif etilgan metodika, o'quvchilarga rangtasvirni nafaqat estetik, balki kasbiy nuqtai nazardan ham chuqurroq tushunishga imkon beradi. Bundan tashqari, rangtasvir bo'yicha badiiy-kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda o'qituvchilarning metodik ko'nikmalari, o'quv materiallarining to'g'ri tanlanishi va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashning ahamiyati ta'kidlandi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, kompetensiyalarni shakllantirishda tizimli yondashuv, o'quvchilarga ko'proq mustaqil va ijodiy ishlarni bajarish imkoniyatini yaratadi.

Shu bilan birga, taklif etilgan metodika amaliyotda muvaffaqiyatli qo'llanilishi uchun o'qituvchilarni muntazam ravishda malaka oshirish va ularni yangi pedagogik metodlar bilan tanishtirish muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari o'quv jarayonining sifatini oshirishga, rangtasvirni o'qitishning samaradorligini yaxshilashga xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida olingan bilim va tajribalar, badiiy ta'lim sohasida yanada rivojlanish uchun muhim ilmiy va amaliy asoslarni yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muminov, A. (2018). Rangtasvir o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar. Toshkent: Akademiya nashriyoti.
2. Usmonov, R. (2020). Badiiy ta'limda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish. Samarqand: O'qituvchi.
3. Karimov, D. (2017). Pedagogik texnologiyalar va ularning o'quv jarayonidagi o'rni. Toshkent: Fan va texnologiya.
4. Mahmudov, O. (2019). Ta'lim metodikasi: Badiiy ta'lim va rangtasvir. Buxoro: Buxoro universiteti nashriyoti.
5. Raximov, B. (2021). Rangtasvirni o'qitishda yangi yondashuvlar. Toshkent: Yoshlar nashriyoti.